

TABIY FANLARNI O'QITISHDA VIZUAL-DIDAKTIK MODELLARIDAN FOYDALANISH (5-SINF MISOLIDA).

Bahodirova Gulibonu Hojiqurbon qizi

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Elov Ziyodulla Sattarovich

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Mazkur tezisda 5-sinf tabiiy fanlar darslarida vizual-didaktik modellarni qo'llash masalasi yoritilgan. Vizual vositalarning o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga ta'siri tahlil qilingan. Didaktik modellarning nazariy asoslari va ularning pedagogik ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Rasmlar, sxemalar, maketlar va multimedia taqdimotlarining dars jarayonidagi roli aniqlangan. Mualliflar kuzatishlari va ilmiy tadqiqotlari asosida vizual-didaktik modellarni qo'llash samaradorligi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mavzuni mustahkam o'zlashtirishini va fanga qiziqishini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, vizual-didaktik modellar zamonaviy ta'limning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi.*

Kalit so'zlar: *Tabiiy fanlar, vizual-didaktik modellar, ko'rgazmalilik, 5-sinf, ta'lim samaradorligi, dars metodikasi.*

KIRISH

Hozirgi davr ta'lim tizimi o'quvchilarning fanlarga qiziqishini oshirish va bilimlarni samarali o'zlashtirishni talab etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar o'qitishda o'quvchilarning tushunish va idrok jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli darslarda vizual-didaktik modellarni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mavzu dolzarbligi shundaki, 5-sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra ko'rgazmali ta'lim vositalariga juda talabchan. Tezisning maqsadi — tabiiy fanlar darslarida vizual-didaktik modellarni qo'llashning samaradorligini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Vazifalar sifatida nazariy manbalarni o'rganish, amaliy kuzatishlarni tahlil qilish va darslarda vizual vositalardan foydalanish natijalarini baholash belgilangan. Shu orqali o'quvchilarning mavzuni mustahkam o'zlashtirishi va fanga qiziqishi oshiriladi.

Asosiy qism:

Tabiiy fanlarni o'qitishda vizual-didaktik modellarning nazariy asoslari pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Xudoyberganova B.N. va Jo'rayev R. 2020-yildagi tadqiqotlarida didaktik model — real jarayon yoki ob'ektni o'quv maqsadiga mos soddalashtirilgan ko'rinishi — o'quvchilarning bilimlarni samarali qabul qilishiga yordam berishi ta'kidlangan.

N.S.Saidahmedov 2019-yilda esa yangi pedagogik texnologiyalar, jumladan vizual vositalardan foydalanish, o'quv jarayonini jonli va interaktiv qilishda muhimligini ko'rsatadi. Amaliy tajriba sifatida, 5-sinf tabiiy fanlar darslarida "Tirik organizmlarning

tuzilishi” va “Moddalarining agregat holatlari” mavzularida vizual-didaktik modellar qo'llanildi.

Darslarda rasmlar, sxemalar, maketlar va multimedia taqdimotlar ishlatildi. Sh.J.Sotiboldiyeva va G.N.Sanoqulovanning ishlarida ko'rsatilganidek, interaktiv metodlar va vizual vositalar dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, vizual-didaktik modellar o'quvchilarning mavzuni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, UNESCOning 2018-yilgi tavsiyalariga muvofiq, ko'rgazmali va interaktiv metodlar o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytiradi va bilimlarni amaliy misollar orqali mustahkamlashga yordam beradi.

O'quvchilarning ish daftarlari va test natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, rasmlar va sxemalar bilan ishlangan mavzular an'anaviy darslarga nisbatan 20–25% samaraliroq o'rganilgan.

Tabiiy fanlar vizual-didaktik materiallardan foydalanib tushuntirish o'quvchilarning yodida obrazli xotira sifatida qoladi. O.Tolipov ., M.Usmonboyeva 2020-yilgi va R.E. Mayerning 2021-yilgi tadqiqotlariga ko'ra, vizual vositalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarda tahlil qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, nazariy manbalar va amaliy tajribalarni birlashtirish orqali, 5-sinf tabiiy fanlar darslarida vizual-didaktik modellarni qo'llash samaradorligi isbotlandi va bu yondashuv pedagogik amaliyotda keng joriy etilishi mumkin.

Xulosa:

Mazkur tezisda 5-sinf tabiiy fanlar darslarida vizual-didaktik modellarni qo'llashning samaradorligi o'rganildi. Nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar asosida, vizual vositalardan foydalangan darslarda o'quvchilarning mavzuni tezroq va chuqurroq o'zlashtirgani aniqlangan. Shuningdek, interaktiv va ko'rgazmali materiallar darsni jonli va qiziqarli qilgan, bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, vizual-didaktik modellar pedagogik amaliyotda samarali vosita sifatida keng qo'llanilishi mumkin va kelajakda o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberganova B.N., Jo'rayev R. "Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar". – Toshkent, 2022.
2. Abdullayeva D.N., Mamatkulova N.T. "Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari." – Buxoro, 2023.
3. Saidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020.

5. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2021.
6. UNESCO Reports on Science Education. Innovative Approaches in Science Teaching. – Paris: UNESCO, 2018.
7. Sotiboldiyeva Sh.J., Sanoqulova G.N. Using Interactive Methods in Teaching Natural Sciences to Primary School Students. – 2025.